XALQ DEPUTATLARI DAVLATOBOD TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 8-yanvar VII-3-1-6-219-K/25 Davlatobod tumani

Davlatobod tumanining 2025-yil uchun yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlari uchun bazaviy soliq stavkalarini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6, 24-moddalari hamda O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429 va 437-moddalariga muvofiq Xalq deputatlari Davlatobod tuman Kengashi

Q A R O R Q I L A D I

1. 2025-yil 1-yanvardan boshlab mahalliy soliq uchun belgilangan stavkalarga oshiruvchi va kamaytiruvchi koeffitsenttlarni qo‘llash bo‘yicha Qoraqolpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, viloyatlar va Toshkent shahar xalq deputatlari mahalliy Kengashlariga hamda tuman va shahar kengashlarining vakolatlari kengaytirilmoqda.

a) Qoraqolpog‘iston Respubliakasi Jo‘qorg‘i Kengesi, viloyatlar va Toshkent shahar xalq deputatlari Kengashlariga:

- 2025-yil 1-yanvardan boshlab yakka tartibdagi tadbirkorlarning qat’iy belgilangan miqdordagi soliq stavkalari (65 ming so‘mdan 1 mln.so‘mgacha diapozonda) doirasida tuman va shaharlarning iqtisodiy rivojlanish darajasidan kelib chiqib yakka tartibdagi tadbikorlar uchun qat’iy soliq stavkalari miqdorini belgilash;

b) Tumanlar (shaharlar) mahalliy Kengashlariga:

- suv solig‘i stavkasiga 0,7 gacha kamaytiruvchi va 1,5 gacha oshiruvchi koeffitsent qo‘llash (qishloq xo‘jaligi, elektr stansiyalari, kommunal xizmat ko‘rsatish korxonalari va ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan yirik soliq to‘lovchilar bundan mustasno);

Tuman byudjetining 2025-yil uchun zaxira jamg‘armalari tegishli byudjetlar tasdiqlangan umumiy xarajatlarining kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantirilsin.

Davlatobod tuman byudjetining ijro etishda yuqori turuvchi byudjetdan ularga ajratiladigan byudjetlararo transfertlarning prognozidan oshgan qismi uchun tegishli

byudjetlarining zaxira jamgʻarmalar miqdorlariga aniqlashtirish kiritilmasligi inobatga olinsin.

2. Mahalliy soliqlar va boshqa majburiy toʻlovlarning stavkalarini qonunchilikda belgilangan miqdorlar doirasida:

qishloq xoʻjaligiga moʻljallanmagan yer maydonlari boʻyicha tuman va shaharlar kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab yer soligʻi stavkasiga 0,5 dan 2,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni qoʻllagan holda yer soligʻi stavkalari 1-ilovaga muvofiq;

yuridik shaxslar boʻyicha mol-mulk soliqlari uchun qoʻllaniladigan mutloq miqdorlari 2-ilovaga muvofiq;

jismoniy shaxslarning mol-mulk soligʻi boʻyicha oʻrnatilgan soliq stavkalariga 0,7 dan 1,3 gacha boʻlgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar 3-ilovaga muvofiq;

YATTlar uchun belgilangan eng kam va eng yuqori stavkalari (diapazon) doirasida hududlar kesimida miqdorlari 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman (shahar)lar xalq deputatlari Kengashlariga mahalliy soliqlar va boshqa majburiy toʻlovlarning stavkalarini qonunchilikda belgilangan miqdorlarda quyidagicha tasdiqlash tavsiya qilinsin:

qishloq xoʻjaligiga moʻljallanmagan yer maydonlari boʻyicha mahallalar kesimida ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab yer soligʻi stavkasiga 0,7 dan 3,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni qoʻllagan holda yer soligʻi stavkalari 5-ilovaga muvofiq;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkasiga 0,7 dan 1,3 gacha qoʻllaniladigan koeffitsiyentlar miqdori 6-ilovaga muvofiq;

noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qatʼiy stavkalariga qoʻllaniladigan 1,3 barobargacha oshiruvchi koeffitsiyentlar miqdori 7-ilovaga muvofiq;

mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara toʻlovining eng kam stavkalariga qoʻllaniladigan 1,3 barobargacha oshiruvchi koeffitsiyentlar miqdori 8-ilovaga muvofiq.

4. Ushbu qaror rasmiy eʼlon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

5. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari boʻyicha doimiy komissiyasi raisi hamda tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambagʻallikni qisqartirish masalalari boʻyicha birinchi oʻrinbosari zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



TADJIMIRZAYEV
ANVAR
ABDUVAXIDOVICH

Xalq deputatlari Davlatobod tumani
Kengashining
2025-yil 8-yanvardagi
VII-3-1-6-219-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Qishloq xoʻjaligiga moʻljallanmagan yerlar boʻyicha tuman va shaharlar kesimida yer soligʻi stavkalari uchun 2025-yil uchun belgilangan koeffitsiyentlar

T/r	Tuman va shaharlar nomi	Yuridik shaxslardan undiriladigan yer soligʻi stavkalari, 1 ga uchun		Jismoniy shaxslar boʻyicha, 1 kv.m uchun *(turar joylar uchun belgilangan oʻsish myoridan oshmagan holda)*	
		Koeffitsiyent (0,5 dan 2 gacha)	Yer soligʻi stavkasi 2025-yil uchun (soʻmda)	Koeffitsiyent (0,5 dan 2 gacha)	Yer soligʻi stavkasi 2025 yil uchun (soʻmda)
1	Davlatobod tuman	1.50	72 600 000,00	1,63	705,79

Xalq deputatlari Davlatobod tumani
Kengashining
2025-yil 8-yanvardagi
VII-3-1-6-219-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Yuridik shaxslar boʻyicha mol-mulk soliqlari uchun qoʻllaniladigan mutloq miqdorlari

T/r	**Tuman va shaharlar nomi**	**Koeffitsiyent**	**Mutloq miqdor** (soʻmda)
1	Davlatobod tuman	1.00	1 300 000

Xalq deputatlari Davlatobod tumani
Kengashining
2025-yil 8-yanvardagi
VII-3-1-6-219-K/25 -son qaroriga
3-ilova

Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig‘i stavkalari bo‘yicha tuman va shaharlar kesimida 2025-yilga belgilangan koeffitsiyentlari

T/r	Tuman va shaharlar nomi	Koeffitsiyent
1	Davlatobod tuman	1,18

Xalq deputatlari Davlatobod tumani
Kengashining
2025-yil 8-yanvardagi
VII-3-1-6-219-K/25 -son qaroriga
4-ilova

YATTlar uchun belgilangan eng kam va eng yuqori stavkalari doirasida hududlar kesimida qat'iy belgilangan soliq miqdorlari

ming so'mda

T/r	Tuman va shaharlar nomi	Oziq-ovqat va nooziq ovqat chakana savdosi (265-800 ming)	Dehqon bozorlarida q/h mahsulotlari chakana savdosi (65-200 ming)	Gazeta, jurnal va kitob chakana savdosi (65-200 ming)	Maishiy xizmatlar (65-200 ming)
1	Davlatobod tuman	800000	200000	200000	200000

Xalq deputatlari Davlatobod tumani
Kengashining
2025-yil 8-yanvardagi
VII-3-1-6-219-K/25 -son qaroriga
5-ilova

Qishloq xoʻjaligiga moʻljallanmagan yerlar boʻyicha tuman va shaharlar kesimida yer soligʻi stavkalari uchun 2025-yilda belgilangan koeffitsiyentlar

ming so`mda

T/r	Mahalla nomi	Yuridik shaxslardan undiriladigan yer soligʻi stavkalari, 1 ga uchun		Jismoniy shaxslar boʻyicha, 1 kv.m uchun	
		Koeffitsiyent (0,7 dan 3 gacha)	Yer soligʻi stavkasi 2025-yil uchun (soʻmda)	Koeffitsiyent (0,7 dan 3 gacha)	Yer soligʻi stavkasi 2025 yil uchun (soʻmda)
1.	Elabod MFY	1,0	72 600,00	0,83	586,67
2.	Davlatobod MFY	1,0	72 600,00	0,85	600,81
3.	Bogʻ MFY	1,0	72 600,00	0,81	572,54
4.	Gulobod MFY	1,0	72 600,00	0,81	572,54
5.	Istiqlol MFY	1,0	72 600,00	0,83	586,67
6.	Quyi Gʻirvon MFY	1,0	72 600,00	0,81	572,54
7.	Quyi Rovuston MFY	1,0	72 600,00	0,81	572,54
8.	Irvadon MFY	1,0	72 600,00	0,82	579,61
9.	Ijodkor MFY	1,0	72 600,00	0,83	586,67
10.	Gulshan MFY	1,0	72 600,00	0,83	586,67
11.	Shishaki MFY	1,0	72 600,00	0,83	586,67
12.	Porlok MFY	1,0	72 600,00	0,83	586,67
13.	Orzu MFY	1,0	72 600,00	0,82	579,61
14.	Nurobod MFY	1,0	72 600,00	0,83	586,67
15.	Navroʻz MFY	1,0	72 600,00	0,81	572,54
16.	Navbaxor MFY	1,0	72 600,00	0,81	572,54
17.	Tadbirkor MFY	1,0	72 600,00	0,78	551,33
18.	Yuksalish MFY	1,0	72 600,00	0,78	551,33
19.	Yuqori Rovuston MFY	1,0	72 600,00	0,85	600,81
20.	Yuqori Gʻirvon MFY	1,0	72 600,00	0,85	600,81
21.	Yelxon MFY	1,0	72 600,00	0,83	586,67
22.	Yangi tong MFY	1,0	72 600,00	0,83	586,67

23.	Mustaqillik MFY	1,0	72 600,00	0,82	579,61
24.	To‘quvchi MFY	1,0	72 600,00	0,85	600,81
25.	Umid MFY	1,0	72 600,00	0,83	586,67
26.	O‘rta G‘irvon MFY	1,0	72 600,00	0,83	586,67
27.	Xalqlar Do‘stligi MFY	1,0	72 600,00	0,85	600,81
28.	O‘rta Rovuston MFY	1,0	72 600,00	0,83	586,67

Xalq deputatlari Davlatobod tumani
Kengashining
2025-yil 8-yanvardagi
VII-3-1-6-219-K/25 -son qaroriga
6-ilova

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga qoʻllaniladigan koeffitsiyentlar

(qishloq hoʻjaligi, elektr stansiyalari, kommunal xizmat koʻrsatish korxonalari va roʻyxati Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan yirik soliq toʻlovchilarga nisbatan tatbiq etilmaydi)

T/r	**Sohalar**	**Koeffitsiyent**	**Soliq miqdor** *(1 kub metr uchun soʻmda)*
1	Alkogolsiz ichimliklarni hamda pivo va vinodan tashqari alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan suv hajmi uchun	1,00	38000
2	Sanoat korxonalari hamda iqtisodiyotning boshqa tarmoqlaridagi korxonalari va yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun	1,00	Yer usti – 700,0 Yer osti – 850,0
3	Avtotransport vositalarini yuvish uchun ishlatilgan suv hajmiga	1,00	15 000,0

Xalq deputatlari Davlatobod tumani
Kengashining
2025-yil 8-yanvardagi
VII-3-1-6-219-K/25 -son qaroriga
7-ilova

Noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qatʼiy stavkalariga qoʻllaniladigan koeffitsiyentlar

T/r	**Noruda qurilish materiallari nomi**	**Koeffitsiyent**	**Soliq miqdor** *(1 kub metr uchun foiz yoki soʻmda)*
1	qum-shagʻal aralashmasi *(qum-shagʻalning karyerdagi realizatsiya minimal miqdori bir metr kubi uchun **20 ming soʻm**)*	1,10	5 500 soʻmdan kam boʻlmagan
2	Gʻisht-cherepitsa xom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar, qurilish qumi, qumtoshlar	1,10	5 foiz yoki 5082 soʻmdan kam boʻlmagan
3	Gips toshi, gips va angidrid, ganch	1,10	5 biroq 17 545 soʻm/tonna dan kam boʻlmagan
4	Tabiiy bezaktoshdan bloklar	1,10	5 biroq 11 000 soʻm/kub.m dan kam boʻlmagan
5	Marmar	1,10	5 biroq 22 000 soʻm/kub.m dan kam boʻlmagan
6	Granitlar	1,10	5 biroq 17 545 soʻm/kub.m dan kam boʻlmagan

Xalq deputatlari Davlatobod tumani
Kengashining
2025-yil 8-yanvardagi
VII-3-1-6-219-K/25 -son qaroriga
8-ilova

Mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara to‘lovining eng kam stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar

T/r	**Ijara obyekti turlari**	**Koeffitsiyent**	**Soliq miqdor** *(so‘mda)*
1	Turar joylar uchun	1,40	17 200 *(1 kv metr uchun)*
2	Noturar joylar uchun	1,40	*33 000 (1 kv metr uchun)*